



БУХОРО ДАВЛАТ ТИББИЁТ
ИНСТИТУТИ



ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

3 ЖИЛД, 1/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 3, НОМЕР 1/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 3, ISSUE 1/1



ТОШКЕНТ-2026

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrasida professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida dotsenti, DSc;
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinolaringologiya kafedrasida professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc.
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadulloeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.K. Temirova** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Nevrologiya va bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika kafedrasida assistenti PhD

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrasida professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasida professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **G.S. Xodjiyeva** - Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida dotsenti

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан № С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114, г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacad>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva Z.F., Xidoyatova D.N. O`tkir ishemik hurujlar tezligi va ishemik insult rivojlanishi xavfi.....	6
2. Avezov B.B., Sadiyev E.S., Avezova D.B. Tajribaviy revmatoidli artritda 12 oylik oq zotsiz kalamushlar periferik limfa tugunlaridagi morfologik o`zgarishlar.....	11
3. Baymuradov R.R., Teshayev Sh.J. Temir tanqisligida 6 oylik oq zotsiz kalamushlarda buyrak morfologiyasi.....	16
4. Karimova M.A., Esamuratov A.I. Ayollar qin mikrobiotasini baholashning zamonaviy mikrobiologik usullari.....	21
5. Madaminova G.I., Ismailov B.M. Tajribaviy gipotireoz chaqirilgan urg`ochi kalamushlardan tug`ilgan avlodda urug`donlarning morfologik xususiyatlari.....	32
6. Majidova N.U., Botirova N.B., Omonov Sh.A., Madjidova Y.N. Structural and functional remodeling of skeletal muscle after botulinum therapy in children with cerebral palsy (clinical and physiological study).....	41
7. Matyakubov B.B. Bachadon atoniyasi sababli massiv akusherlik qon ketishida onalar o`limini kamaytirish usullari.....	46
8. Narzulaeva U.R. Tungi apnoe sindromi etiopatogenezi, klinikasi, zamonavi diagnostika va davolash strategiyalari.....	50
9. Pulatova Sh.H., Shodiqulova G.Z., Kenjaev M.L. Diabetik nefropatiyaning yurak yetishmovchiligi bilan birga kechgan patalogiyaning genetik va epigenetik asoslari.....	55
10. Qodirjonov I.Z. Implant qo`yishdan avvalgi tayyorgarlik va profilaktika usullarining samaradorlikka ta`siri.....	61
11. Raxmonova G.E., Eshmuradov E.A. Jigar exinokokkozini zamonaviy tashxisiga qarashlar (adabiyotlar sharhi).....	66
12. Raxmatov A.A. Bolalarda adenoidlar vegetatsiyasi II-darajasini konservativ davolash taktikasi.....	73
13. Sharipova N.S., Jabbarov O.O. Clinical and functional characteristics of renal dysfunction in patients with chronic obstructive pulmonary disease in combination with arterial hypertension.....	77
14. Tuxtayeva N.X., Ko`ziboyev S.Q. Ko`krak bezi saratonining rivojlanishi hamda kasallikning hozirgi kunda yosharib borishi sabablari.....	83


15. Yusupov A.P., Qo‘ziyev O.J. Immunizatsiya qilingan tajriba quyvon modelida brutsellyoz ta’sirida jigardagi patomorfologik o‘zgarishlar.....	89
16. Yusupov Sh.R., Umirov S.E., Buriyev A.Y., Sadullayev S.E. Surunkali virusli C gepatiti bilan kasallanishning epidemiologik xususiyatlari.....	94
17. Yusupova I.A. O‘smirlarda coxa vara patologiyasini davolashda bajariladigan koreksiyalovchi osteotomiya operatsiyasi.....	100
18. Алимова Н.П., Хасанова Д.А. Возрастные и половые особенности морфометрической организации глоточной миндалины у детей второго периода детства.....	106
19. Асадова Н.Ш., Рахимова Г.Н. Сахарный диабет 2 типа и когнитивные нарушения: обзор современных данных.....	112
20. Бобониязов К.К. Орфанные заболевания генетической природы: современные достижения молекулярной диагностики, терапевтические перспективы и опыт Узбекистана.....	117
21. Жумаев А.Х. Ортопедик стоматологик реабилитация жараёнида кекса ёшли беморларнинг оғиз соғлиғи билан боғлиқ ҳаёт сифатини ОНП-14 сўровномаси орқали динамик баҳолаш.....	121
22. Зарипов Ш.Ш., Султонова Н.А., Зарипова Д.Я. Основные акушерские осложнения связанные с антифосфолипидным синдромом (обзор литературы)	138
23. Зияходжаева Л.У. Объективная оценка формирования двигательных и психоречевых функций у детей с перинатальным поражением головного мозга.....	143
24. Каримов М.М., Каримова Д.К., Абдуллаева У.К., Таджиходжаева Ю.Х., Ешимбетов О. 2025 йилда Ўзбекистон аҳолиси орасида Helicobacter pylori инфекциясининг тарқалиши.....	147



UO'K : 616.36 - 002.14 - 036.22 (575.171)

¹Yusupov Sh.R., <https://orcid.org/0009-0000-7106-8780>^{2,3}Umirov S.E., <https://orcid.org/0009-0009-9858-0974>⁴Buriyev A.Y., <https://orcid.org/0009-0003-4458-487X>¹Sadullayev S.E. <https://orcid.org/0009-0006-4052-7183>¹Urganch davlat tibbiyot instituti, Xorazm, O'zbekiston²Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Toshkent, O'zbekiston³Alfraganus universiteti, Toshkent, O'zbekiston⁴Turon universiteti, Qashqadaryo, O'zbekiston

SURUNKALI VIRUSLI C GEPATITI BILAN KASALLANISHNING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19819556>

Annotatsiya. C gepatiti jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy ahamiyatga molik muammo hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi. Xorazm viloyatida S gepatiti bilan kasallanishni aholining ijtimoiy-kasbiy guruhlarida bo'yicha tahlil etish va patsiyentlarning xavf omillariga daxldorligini baholashdan iborat. Tadqiqot materiallari va usullari. Xorazm viloyatida 1998-2023-yillar mobaynida qayd etilgan o'tkir C gepatiti bilan kasallanishning (jami 643 holat) dinamikasini, ijtimoiy-kasbiy tarkibini hamda patsiyentlarning xavf omillariga daxldorligini aks ettiruvchi ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda ijtimoiy, epidemiologik va statistik usullar qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Xorazm viloyatida 1998-2023-yillar mobaynida O'SG bilan kasallanishning 100 ming nafar aholiga o'rtacha jadallik ko'rsatkichi 1,8 dan iborat. 1998-2009-yillar mobaynida kasallikning yuqori darajasi kuzatilgan. 2010-2023-yillar davomida kasallanish keskin pasaygan va sporadik tus olgan. Anamnestik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, patsiyentlar tarkibida C gepatiti virusi yuqishiga doir xavf omillariga daxldor patsiyentlar hissasi (81,2%), xavf guruhiga mansub bo'lmagan patsiyentlarning hissasiga (18,8%) qaraganda 4,3 marta yuqori ($r < 0,01$). Xulosalar. C gepatitiga nisbatan profilaktik tadbirlar belgilanishida ham, patsiyentlarga tibbiy xizmat taqdim etilishida ham patsiyentlarning ijtimoiy-kasbiy tarkibi va xavf omillariga daxldorligi inobatga olinishi zarur.

Kalit so'zlar: C gepatiti, jadallik, dinamika, ijtimoiy-kasbiy tarkib, xavf omillari

¹Юсупов Ш.Р., ^{2,3}Умиров С.Э., ⁴Буриев А.Й., ¹Садуллаев С.Э.

¹Ургенчский государственный медицинский институт, Хорезм, Узбекистан

²Центр развития профессиональной квалификации медицинских работников, Ташкент, Узбекистан

³Университет Альфрагануса, Ташкент, Узбекистан

⁴Университет Турон, Кашкадаря, Узбекистан

ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ХРОНИЧЕСКИМ ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ С

Аннотация. Гепатит С представляет собой серьезную социально-экономическую и медицинскую проблему. Цель исследования. Заключается в анализе заболеваемости гепатитом С в Хорезмской области по социально-профессиональным группам населения и оценке причастности больных к факторам риска. Материалы и методы исследования. Использованы данные, отражающие динамику заболеваемости острым гепатитом С (всего 643 случая), социально-профессиональный состав и факторы риска больных в Хорезмской области за 1998-2023 годы. В исследовании использовались социальные, эпидемиологические и статистические методы. Результаты исследования и обсуждение. В период 1998-2023 гг. в Хорезмской области средний показатель заболеваемости острым гепатитом С на 100 000 жителей составляет 1,8. В 1998-2009 годах наблюдался высокий уровень заболеваемости. За 2010-2023 годы заболеваемость резко снизилась и приняла спорадический характер. По данным анализа анамнестических данных, доля больных с факторами риска заражения вирусом гепатита С (81,2%) в 4,3 раза превышает долю больных, не относящихся к группе риска (18,8%) ($p < 0,01$). Выводы. Необходимо учитывать социально-профессиональный состав больных и их причастность к факторам риска как при определении профилактических мер против гепатита С, так и при оказании медицинских услуг пациентам.

Ключевые слова: гепатит С, интенсивность, динамика, социально-профессиональный состав, факторы риска.

¹Yusupov Sh.R., ^{2,3}Umirov S.E., ⁴Buriyev A.Y., ¹Sadullayev S.E.

¹Urgench State Medical Institute, Khorezm, Uzbekistan

²Center for the Development of Professional Skills of Medical Workers, Tashkent, Uzbekistan

³Alfraganus University, Tashkent, Uzbekistan

⁴Turon University, Kashkadarya, Uzbekistan

EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHRONIC VIRAL HEPATITIS C INFECTION

Annotation. Hepatitis C is a serious socio-economic and medical problem. Purpose of the study. It consists in analyzing the incidence of hepatitis C in the Khorezm region by socio-professional groups of the population and assessing the involvement of patients in risk factors. Materials and methods of the study. The data reflecting the dynamics of acute hepatitis C incidence (643 cases in total), the socio-professional composition and risk factors of patients in the Khorezm region for 1998-2023 were used. The study used social, epidemiological and statistical methods. Research results and discussion. In the period 1998-2023 in the Khorezm region the average incidence rate of acute hepatitis C per 100,000 residents is 1.8. In 1998-2009 there was a high incidence rate. In 2010-2023 the incidence rate sharply decreased and became sporadic. According to the analysis of anamnestic data, the proportion of patients with risk factors for hepatitis C virus infection (81.2%) is 4.3 times higher than the proportion of patients not belonging to the risk group (18.8%) ($p < 0.01$). Conclusions. It is necessary to take into account the socio-professional composition of patients and their involvement in risk factors both when determining preventive measures against hepatitis C and when providing medical services to patients.

Key words: hepatitis C, intensity, dynamics, socio-professional composition, risk factors.

Kirish. С гепатити ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy ahamiyatiga ko'ra jahon miqyosidagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi [5, 7]. Xos profilaktika vositalarining yaratilmaganligi, surunkali gepatit va jigar sirrozi rivojlanish ehtimolining yuqoriligi, kasallikni tashxislash va davolash bahosining yuqoriligi С гепатитining dolzarbligini belgilaydi [1, 3, 4]. Jahonda 2022-yilda 50

million nafar shaxsda surunkali C gepatiti, 1 million atrofida o'tkir C gepatiti qayd etilgan va 242 ming nafar kishi C gepatiti oqibatlaridan vafot etishgan [7].

Tadqiqotchilar tomonidan C gepatiti bilan kasallanish darajasida hududiy tafovutlar mavjudligi, aholining muayyan xavf omillariga daxldor guruhleri o'rtasida mazkur kasallikning nisbatan kengroq tarqalishi ta'kidlanadi [2, 3, 4, 6]. Yuqorida ta'kidlanganlarga ko'ra, Xorazm viloyatida C gepatiti bilan kasallanish holatini aholining turli ijtimoiy-demografik guruhleri o'rtasida o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi. Xorazm viloyatida C gepatiti bilan kasallanishni aholining ijtimoiy-kasbiy guruhleri bo'yicha tahlil etish va patsiyentlarning xavf omillariga daxldorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Xorazm viloyatida 1998-2023-yillar mobaynida qayd etilgan o'tkir C gepatiti (O'SG) bilan kasallanishning (jami 643 holat) dinamikasini, ijtimoiy-kasbiy tarkibini hamda patsiyentlarning xavf omillariga daxldorligini aks ettiruvchi ma'lumotlar tahlil etildi.

Tadqiqotni bajarish jarayonida ijtimoiy, epidemiologik va statistik usullar qo'llanilgan. Tadqiqot natijalariga ishlov berish Windows (StatSoft Inc., SSHA), MS Excel 7.0 (Microsoft Corp., SSHA) Statistica uchun dasturiy ta'minotini qo'llab standart statistik usullar yordamida amalga oshirildi. O'rtacha xatolik (m) va ishonarlilik ko'rsatkichi (r) hisoblandi.


Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Xorazm viloyatida 1998-2023-yillar mobaynida o'tkir C gepatiti bilan kasallanishning jami 643 holati kuzatilgan. Kasallanining 100 ming nafar aholiga o'rtacha jadallik ko'rsatkichi 1,8 dan iborat bo'lib, kasallik qayd etilgan yillarda 0,1 dan (2018, 2021 yy.) 5,7 ga (2000 y.) qadar tebranib turgan. Jadallik ko'rsatkichining medianasi - 1,75 (0,2 – 4,0) dan iborat. Viloyatda 1999-2009-yillar mobaynida O'SG bilan kasallanishning jadallik ko'rsatkichi o'rtacha ko'rsatkichdan (1,8) 1,1-3,2 marta yuqori darajada kuzatildi. 2010-2023-yillarda kasallanish deyarli uzluksiz pasaygan va ushbu muddatning 4-yilida (2016, 2019, 2020 va 2023 yy.) viloyatda O'SG holatlari qayd etilmagan. Shu davrning boshqa yillarida kasallanish darajasi o'rtacha ko'rsatkichdan (1,8) 1,1-18,0 marta past darajada kuzatilgan. Viloyatda O'SG holati qayd etilgan so'nggi yil - 2022-yilda kasallanish ko'rsatkichi (0,2) 1998-yildagiga (0,9) qaraganda 4,5 marta, 2000-yildagiga (5,7) qaraganda 28,5 marta pasaygan. 2022-yilda kasallanishning o'rtacha yillik pasayish sur'ati 1998 va 2000-yillardagiga qaraganda tegishlicha -3,2% va -4,4% dan iborat. Kasallanishning yaqqollik ko'rsatkichi 1998-yildagiga (100,0) nisbatan 2022-yilda esa 22,2 ni tashkil etadi. C gepatiti epidemik jarayoni dinamikasini tahlil etish viloyatda kasallanishning pasayish tendensiyasi kechayotganligini va faqat sporadik holatlar qayd etilayotganligini ko'rsatadi (jadval).

Jadval. Xorazm viloyatida o'tkir C gepatiti bilan kasallanish dinamikasi, 1998-2023 yy., 100 ming nafar aholiga

Yillar	O'tkir C gepatiti		
	Jadallik	Yaqqollik	O'sish (pasayish) sur'ati
1998	0,9	100,0	
1999	2,5	277,8	+177,8
2000	5,7	633,3	+266,7
2001	4,0	444,4	+114,8
2002	5,3	588,9	+122,2
2003	3,4	377,8	+55,6
2004	3,3	366,7	+44,4
2005	3,4	377,8	+39,7
2006	3,7	411,1	+38,9
2007	1,9	211,1	+12,3
2008	2,7	300,0	+20,0
2009	3,7	411,1	+28,3

2010	0,9	100,0	0
2011	1,6	177,8	+6,0
2012	0,9	100,0	0
2013	0,8	88,9	-0,7
2014	0,4	44,4	-3,5
2015	0,2	22,2	-4,6
2016	-	-	-
2017	0,2	22,2	-4,1
2018	0,1	11,1	-4,4
2019	-	-	-
2020	-	-	-
2021	0,1	11,1	-3,9
2022	0,2	22,2	-3,2
2023	-	-	-
O'rtacha	1,8		
Me	1,75 (0,2-0,4)		
(Me ⁻ -Me ⁺)			


C gepatiti bilan kasallanishni aholining ijtimoiy-kasb guruhlari bo'yicha taqsimlanishiga ko'ra tahlil etish, Xorazm viloyatida 1998-2023-yillar mobaynida patsiyentlar o'rtasida ishsizlar (17,3%) hissasi boshqa guruhlariga qaraganda statistik ahamiyatli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi ($r < 0,05$). Kasallanish tarkibida tibbiyot xodimlari (10,3%), transport tizimi xodimlari (8,7%), savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat muassasalari xodimlari (9,5%), davlat xizmatchilari (8,6%), dehqonlar (9,8%), chorvadorlar (9,0%), nafaqadagilar (8,9%) hamda boshqalarning (9,8%) hissasi o'zaro statistik ahamiyatli tafovutga ega emas ($r > 0,05$) (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyatida o'tkir C gepatiti bilan kasallanishning aholi ijtimoiy-kasb guruhlari bo'yicha taqsimlanishi, 1998-2023 yy., %

Lekin, mazkur guruhlar hissasi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar (0,2%), o'quvchilar (1,1%), pedagoglar (1,7%) va turizm sohasi xodimlari (5,1%) hissasi o'rtasida statistik ahamiyatli tafovut mavjud ($r < 0,05$).

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillarning mantiqiy davomi sifatida C gepatiti bilan kasallanganlar o'rtasida turli xavf guruhlari gacha mansub patsiyentlar hissasi baholandi (2-rasm).




2-rasm. Xorazm viloyatida o'tkir C gepatiti patsientlari tarkibida turli xavf guruhiga mansub shaxslarning hisssasi, 1998-2023 yy., %

Muayyan xavf omillariga daxldorlik tahlilining natijalariga ko'ra, patsiyentlar o'rtasida tashqi migratsiyada ≥ 6 oy bo'lib qaytgan shaxslar (25,8%) va surunkali somatik kasalliklari mavjud shaxslarning hisssasi (17,3%) boshqa xavf guruhiga mansub patsiyentlarning - OIV infeksiyali va venerik kasalliklari mavjud shaxslar (4,2%), gemodializ patsiyentlari (5,1%), narkologik muassasalar hisobida turuvchi shaxslar (10,6%), jazoni ijro etish muassasalaridan (JIEM) ozod etilgan shaxslar (7,9%) va tibbiyot xodimlarining (10,3%) hissasiga qaraganda statistik ahamiyatli darajada yuqori ($r < 0,05$).

Shu tariqa anamnestik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, jami patsiyentlardan (643 nafar) 522 nafari (81,2%) infeksiya yuqishiga nisbatan turli darajadagi xavf omillariga daxldorligi aniqlandi. O'tkir C gepatiti patsiyentlari o'rtasida tashqi migratsiyada ≥ 6 oy bo'lib qaytgan shaxslar va surunkali somatik kasalliklari mavjud shaxslar hissasining boshqa xavf guruhlari vakillari hissasiga nisbatan yuqoriligi, populyatsiya tarkibida mazkur guruhlarga mansub shaxslar sonining boshqa guruhlarga mansub kishilar sonidan yuqoriligi bilan izohlanadi.

Anamnestik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, tadqiq etilayotgan davr mobaynida Xorazm viloyatida qayd etilgan 643 nafar patsiyentlarning 121 nafari (18,8%) C gepatiti virusi yuqishiga nisbatan xavf guruhiga mansub bo'lmagan patsiyentlar ekanligi aniqlandi. Ya'ni, C gepatiti virusi yuqishiga nisbatan turli darajadagi xavf omillariga daxldor patsiyentlar hisssasi (81,2%), xavf guruhiga mansub bo'lmagan patsiyentlarning hissasiga (18,8%) qaraganda 4,3 marta yuqori ($r < 0,01$) (3-rasm).



3-rasm. Xorazm viloyatida o'tkir C gepatiti patsiyentlarining xavf omillariga daxldorligi bo'yicha taqsimlanishi, 1998-2023 yy., %

Demak, zamonaviy sharoitda Xorazm viloyatida HCV-infeksiyaning tarqalish ko'lamini va jadalligi aksariyat aholining xavf omillariga nechog'li daxldorligi bilan belgilanadi.

Xulosalar. Xorazm viloyatida 1998-2023-yillar mobaynida O'SG bilan kasallanishning 100 ming nafar aholiga o'rtacha jadallik ko'rsatkichi 1,8 dan iborat bo'lib, 1999-2009-yillar mobaynida kasallanish barqaror yuqori darajada kuzatilgan. Doimiy ta'sir etib turuvchi omillarning ta'siri dinamikada tobora pasaya borganligi sababli 2010-yildan boshlab to 2023-yilga qadar kasallanishning keskin va deyarli uzluksiz pasayish jarayoni kechgan hamda so'nggi yillarda kuzatilayotgan kasallik holatlari tasodifiy omillar ta'sirida sporadik shaklda vujudga kelmoqda.

Anamnestik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, HCV-infeksiyaning tarqalish ko'lamini va jadalligi aksariyat aholining xavf omillariga nechog'li daxldorligi bilan belgilanadi - patsiyentlar tarkibida C gepatiti virusi yuqishiga doir xavf omillariga daxldor patsiyentlar hisssasi (81,2%), xavf guruhiga mansub bo'lmagan patsiyentlarning hissasiga (18,8%) qaraganda 4,3 marta yuqori ($r < 0,01$). Ushbu jihatlarda C gepatitiga nisbatan profilaktik tadbirlar belgilanishida ham, patsiyentlarga tibbiy xizmat taqdim etilishida ham inobatga olinishi zarur.

Adabiyotlar.

1. Информационный бюллетень ВОЗ, июль, 2022.
<https://www.who.int/europe/health-topics/hepatitis> www.who.int/hepatitis. 2022;
2. Савилов Е.Д., Малов С.И., Малов И.В. и др. Эпидемиологические проявления вирусного гепатита С у представителей европеоидной и монголоидной рас. Журнал микробиологии, эпидемиологии и иммунобиологии. 2016; (1): 9-16.
3. Умиров С. Э., Юсупов Ш.Р. Проблемы профилактики гемоконтактных инфекций, связанных со здравоохранением // Сб. мат-ов межд. научно-практ. конф. «Проблемы и перспективы миниинвазивных технологий в медицине». Ургенч, 29-30 сентября 2023.-Стр. 236
4. Шахгильдян И.В., Михайлов М.И., Онищенко Г.Г. Парентеральные вирусные гепатиты (эпидемиология, диагностика, профилактика).- М., 2003. – 384 с.
5. Юсупов Ш.Р., Аитов К.А., Савилов Е.Д., Абдуллаева Д.К., Умиров С.Э. Этиологическая характеристика хронических вирусных гепатитов в Хорезмской области Узбекистана. Байкальский медицинский журнал, 2023, Том 2, №2. -Стр. 37-44
6. Dhiman R.K., Grover G.S. et al. Direct-acting antiviral therapy is safe and effective in pediatric chronic hepatitis C: the public health perspective. Journal of pediatric gastroenterology and nutrition. 2019; 68(1): 74-80.
7. World Health Organization (WHO). Hepatitis C Fact Sheet. URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hepatitis-c> Кириш санаси: 2025 йил 23 январь.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году
Бухарским государственным
медицинским институтом
Выходит один раз в 3 месяца
Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт